TOSHKENT VILOYATI PARKENT TUMAN HOKIMI
QARORI

2022 - yil 13 - oktabr 403-10-141-Q/22 Parkent tuman hokimligi

Parkent tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalari,“Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonunning 15-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishchora-tadbirlari xaqida”gi101-son qaroriga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining kapital qurilish, kommunikatsiyalar va kommunal xo‘jalik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman adliya bo‘limi hamda tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Dadaboyev) bilan birgalikda bir oy muddatda tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun tumanhokimiga kiritsin.

3. Tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (R. Tojiboev), tuman sanitariya-epidemiologok osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (B.Raximberdiyev), tuman obodonlashtirish boshqarmasi (J.Dadaboyev):

— fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

— sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlash, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasini ajratish yer to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (J.Dadaboyev) hamda qabristonlarning

ma’muriyatlari:

— xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarningqabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

— qabristonlarda byustlar, xaykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga egabo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishinita’minlasin.

5. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligi rasmiyveb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari E.Raxmonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Sh.Shoaxmedov**